

Ilmiy rahbar: Salayev Ixtiyor Baxtiyorovich, “Yangi asr” universiteti

ILM-FAN VA MATBUOT ORQALI MILLIY UYG‘ONISH G‘OYALARINI TARG‘IB ETISHDA BEHBUDIYNING O‘RNI

*Ikromova Mubinaxon Nodirbekovna, “Yangi asr” universiteti Filologiya
va tillarni o‘qitish (arab tili) ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

THE ROLE OF BEHBUDI IN PROMOTING THE IDEAS OF NATIONAL AWAKENING THROUGH SCIENCE AND PRESS

*Ikromova Mubinaxon Nodirbekovna, 3rd-year student of the Department
of Philology and Language Teaching (Arabic) at “Yangi Asr” University*

РОЛЬ БЕХБУДИ В ПРОПАГАНДЕ ИДЕЙ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ ЧЕРЕЗ НАУКУ И ПЕЧАТЬ

*Икромова Мубинахон Нодирбековна, студентка 3-курса
направления “Филология и преподавание языков (арабский язык)”
университета “Янги аср”*



<https://orcid.org/0009-0004-3676-7075>

e-mail:
ikromovamubinaxon@gmail.com

e-mail:
salayevixtiyor@gmail.com,

<https://orcid.org/0009-0006-8850-0940>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning O‘rta Osiyoda ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini shakllantirish va tarqatishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Muallif Behbudiyning ilm-fan, ta’lim-tarbiya va matbuot sohalaridagi faoliyatini o‘rganar ekan, uning Turkiston jadidchilik harakatining mafkuraviy asoschisi sifatidagi tarixiy ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, maqolada Behbudiyning ijtimoiy islohotlarga da‘vat etuvchi asarlari, zamonaviy maktablar ochish tashabbuslari hamda milliy uyg‘onish g‘oyalarining targ‘ibotchisi sifatidagi faoliyati ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ma‘rifatparvarlik, jadidchilik harakati, Turkiston, zamonaviy maktab, matbuot, milliy uyg‘onish, islohot.

Abstract: This article analyzes the role of Mahmudkhoja Behbudi (1875–1919) in shaping and promoting enlightenment ideas in Central Asia. The author examines Behbudi’s contributions to science, education, and journalism, highlighting his historical significance as one of the ideological founders of the Jadid movement in Turkestan. The article also provides a scholarly analysis of Behbudi’s works calling for social reform, his initiatives in establishing modern schools, and his efforts in promoting national awakening.

Keywords: enlightenment, jadid movement, Turkestan, modern school, press, national awakening, reform.

Аннотация: В данной статье анализируется роль Махмуд-ходжи Бехбуди в формировании и распространении идей просвещения в Центральной Азии. Автор изучает деятельность Бехбуди в сфере науки, образования и печати, освещая его историческое значение как идеолога движения джадидов в Туркестане. Кроме того, в статье проводится научный анализ произведений Бехбуди, призывающих к социальным реформам, его инициатив по открытию современных школ, а также деятельности в качестве пропагандиста идей национального возрождения.

Ключевые слова: просвещение, джадидское движение, Туркестан, современная школа, печать, национальное возрождение, реформы.

Kirish. Mahmudxo‘ja Behbudi O‘rta Osiyoda ma‘rifatparvarlik va milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib etishda muhim shaxs sifatida

tanilgan. U ilm-fan, ta’lim va matbuot orqali xalq ongini yuksaltirish, zamonaviy maktablar ochish va ijtimoiy islohotlarga da‘vat etish orqali Turkiston

jadidchilik harakatining mafkuraviy asoschisi sifatida o'ziga xos o'rin egallagan. Shu sababli, Behbudiyning faoliyati nafaqat ilmiy va adabiy meros sifatida, balki milliy ong va madaniyatni rivojlantirish jarayonidagi strategik ahamiyat bilan ham ahamiyatlidir. Ushbu maqola uning ilm-fan va matbuot vositalari orqali milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib etishdagi rolini tahlil qilishga qaratilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) – Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, diniy ulamo, ma'rifatparvar, pedagog, dramaturg, matbuot arbobi va ijtimoiy-siyosiy faol bo'lib, zamonasining eng yirik islohotparvar ziyolilaridan sanaladi. U **“Turkiston jadidlari otasi”** sifatida e'tirof etiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqandda tug'ilgan. U dastlab otasidan diniy saboq olgan, so'ngra Buxorodagi Mir Arab, Ko'kaldosh va boshqa madrasalarda tahsil olgan. Bu yillarda u islom dini, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bilan bir qatorda, tarix, falsafa, mantiq va boshqa dunyoviy fanlarga ham chuqur qiziqish bildirgan.

Uning tafakkuri islom dini asoslarida yotgan bo'lsa-da, u diniy bilim bilan cheklanib qolmadi, balki zamonaviy g'oyalar, G'arbda va Usmonli imperiyasida kechayotgan islohotlar bilan tanishdi. Behbudiy XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi global modernizatsiya jarayonlariga befarq bo'lmagan musulmon ziyolilari safiga qo'shildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatining nazariy asoslarini ishlab chiqqan va amaliy shakllanishida faol qatnashgan. U eski usuldagi maktablarni zamonaviy (usuli jadid) maktablar bilan almashtirish, fan, texnika va ma'rifatni musulmon jamiyatlariga olib kirishni bosh maqsad qilgan. Behbudiy millatning ravnaqi uchun ilm va ma'rifatni asosiy omil sifatida ko'rgan. U o'z maqolalarida maktab ta'limini isloh qilish, yoshlarga zamonaviy bilimlar berish masalalariga alohida urg'u beradi. Eski usulda ta'lim olayotgan bolalarning faqatgina diniy bilimlar bilan cheklanib qolayotganini tanqid qiladi va zamonaviy fanlar – geografiya, matematika, tarix, tibbiyot, xorijiy tillar o'qitilishi kerakligini ta'kidlaydi. Behbudiy uchun maktab faqat bilim beruvchi maskan emas, balki jamiyatni yangilovchi, mustaqil fikrlovchi zamonaviy shaxsni tarbiyalovchi institutdir.

Adabiyotlar tahlili. Xususan, u o'zining 1914-yil “Oyna” jurnalida chop etilgan “Muhtaram yoshlarga murojaat” maqolasida shunday yozadi: “Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va

saodatning darvozasidir. Har millat eng avvalo, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'paytirmaguncha, taraqqiy yo'lig'a kirub, madaniyatdin foydalanmas. Binoan alayh, yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarining har jihatdan intizom va akmolig'a ahamiyat berib, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda etishdirurlar. Aning uchundirki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotg'a molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar”.

Behbudiyning ma'rifiy qarashlari faqatgina nazariy emas, balki amaliy tashabbuslar orqali ham namoyon bo'lgan. U 1909-yilda Samarqandda yangi usulda o'qitiladigan maktab ochdi. Bu maktabda o'quvchilarga arab yozuvi asosida savod o'rgatilishi bilan birga, dunyoviy fanlardan ham saboqlar berilar edi. Behbudiy bu orqali bolalarning nafaqat diniy, balki ijtimoiy, madaniy va ilmiy bilimlarga ega bo'lishini istagan. U o'qituvchilarni tanlashda ham e'tiborli bo'lgan, ular zamonaviy fikrlovchi, dunyoviy fanlar haqida ma'lumotga ega, o'qituvchilik mas'uliyatini chuqur his qiladigan insonlar bo'lishi lozimligini ta'kidlagan.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining publitsistik faoliyati davomida ilm-fan, madaniyat, zamonaviy ta'lim va dunyoqarashni targ'ib qiluvchi o'nlab maqolalar yozgan bo'lib, bu asarlar o'zbek matbuotida yangi uyg'onish davrining asoslarini yaratgan. Uning asosiy g'oyasi – musulmon jamiyatini jaholat, illat va turg'unlikdan olib chiqish uchun yagona yo'l – ilm-ma'rifat orqali yangicha fikrlash, zamonaviy bilimlarga ega bo'lish zarurligini ko'rsatish edi.

Birgina maktab orqali xalqni ma'rifatga yetaklash yetarli emas edi. Jamiyat o'zini anglab olishi, zamon va dunyodagi o'zgarishlardan boxabar bo'lishi, Vatan va millat hayotidagi muammolarni idrok etishi zarur edi. Xalq uchun o'zining illatlarini ham, fazilatlarini ham ko'ra oladigan oynaga ehtiyoj bor edi.

Muhokama. Aynan shu ijtimoiy zarurat Mahmudxo'ja Behbudiyning teatr va matbuot sohalariga murojaat qilishga undadi. Behbudiy o'z fikrlarini keng ommaga yetkazish maqsadida badiiy asarlar ham yaratdi. Shu tarzda uning mashhur “Padarkush” dramasi (1911) yuzaga keldi. Bu asar orqali u o'zbek dramaturgiyasiga asos soldi va sahna san'atining taraqqiyotiga xizmat qildi. Asarda ota-onaga bo'lgan hurmat-ehtimom, jamiyatda ilm va axloqning o'rni va o'zbek jamiyatidagi muammolar teran badiiy vositalar bilan aks ettirilgan. Biroq bu

asarning ommaga taqdim etilishi oson kechmadi. “Padarkush” asari 1911-yilda yozilgan bo‘lsa-da, faqat 1913-yilda bosmadan chiqdi. Asar bosilib chiqqanidan keyin ham uning sahnalashtirilishi uchun deyarli bir yil vaqt ketgan.

1906-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining eng muhim tashabbusini amalga oshirdi. “**Tarjimon**” va “**Shuhrat**” gazetalarida bilan hamkorlikda Sadridin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari bilan bir qatorda o‘z maqola va xotiralarini e‘lon qila boshladi. U o‘z maqolalarida millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ifoda etar edi. 1913-yildan Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullana boshlagan. Shu yilning aprel oyida Samarqandda Turkistondagi birinchi musulmonlar gazetasi – “**Samarqand**” gazetasi nashr etila boshladi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to‘xtagan. Shu yilning 20-avgustidan u “Oyna” jurnalini chiqara boshlaydi. Jurnal ma‘rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Bu suratli haftalik gazeta asosan o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy she‘rlar, maqolalar, ruscha e‘lonlar, shuningdek, millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo‘lgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgustdagi birinchi – nishona sonidayoq, “Ikki emas, to‘rt til lozim” degan maqola bilan chiqqan edi. Turkistonda ikki tillilik masalasini Behbudiy “Oyina”ni chiqarmasidan ancha ilgari, 1909-yili “Tarjimon”ga yo‘llagan maqolasida ko‘targan edi. Behbudiy turkiy va forsiy tilning turkistonliklar uchun ahamiyatli ekaniga e‘tibor qaratmoqchi bo‘ldi va ikkala tilning maktab tahsiliga kiritilishi tarafdori ekanligini ilgari surdi.

Ziyo Saidning Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyna” jurnalidagi faoliyatini quyidagicha xotiralaydi: “Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e‘tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevilib o‘qildi”.

Behbudiy bu yillarda nashr ishlari bilan ham qizg‘in shug‘ullangan. “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochdi. Nashriyotda ilk bor Behbudiyning turkiy tilda tuzgan Turkiston, Buxoro, Xiva xaritasi, darslik qo‘llanmalari, “Padarkush” dramasi va Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asari ruschaga o‘girilib chop etilgan. Garchi bu kitoblar narxi belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, Behbudiy “ularni o‘z mablag‘laridan bosib tarqatdi”. Behbudiy o‘z rahnamoligida ochgan maktablari uchun darslik yozgan, nashr ettirgan va ularni “tekinga tarqatgan” yagona muallim edi. “Behbudiya kutubxonasi” va “Nashriyoti Behbudiya” 1908-1915-yillarga qadar faoliyat olib bordi. Ushbu ilm maskanlari birgalikda xalqqa xizmat qilgan, Behbudiyning jadid qiyofasini yoritib turuvchi ziyo maskanlari bo‘lib qoldi.

Xulosa. Mahmudxo‘ja Behbudiy ilm-fan va matbuot orqali O‘rta Osiyoda milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib etishda muhim rol o‘ynadi. U ta‘lim, ma‘rifat va ijtimoiy islohotlarga oid faoliyati bilan Turkiston jadidchilik harakatining mafkuraviy asoschisi sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Behbudiyning asarlari va tashabbuslari xalq ongini yuksaltirish, milliy ma‘naviyatni mustahkamlash va zamonaviy maktab tizimini rivojlantirishda katta hissa qo‘shdi. Shu bilan birga, uning faoliyati milliy uyg‘onish jarayonida ilm-fan va matbuotning strategik ahamiyatini namoyon etdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek xalqining ma‘naviy uyg‘onishida g‘oyatda muhim o‘rin tutgan jadid mutafakkiri bo‘lib, uning ilm-ma‘rifat haqidagi qarashlari nafaqat o‘z zamonasining ilg‘or fikrlari, balki keying avlodlar uchun ham yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Behbudiy. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna jurnali. 1914-yil 41-son. – B. 970-972.
2. Z.Abdirashidov, N.Egamqulova. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyina” jurnali. – Toshkent, Muharrir, 2019. – B. 43.
3. B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, S.Ahmedov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent. Ma‘naviyat. 2004. – B.166.
4. Z.Abdirashidov, N.Egamqulova. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyina” jurnali. – Toshkent, Muharrir, 2019. – B. 35.

